

Namanganda yirik Xalqaro Forum o'z ishini boshladi

Namangan shahrida O'zbekiston Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Namangan muhandislik-qurilish instituti va Namangan davlat universiteti hamkorlikda "Farg'ona vodiysida fizika ilm-fanining bugungi kuni va yangi yo'nalishlarini rivojlantirish istiqbollari" muhokamasiga bag'ishlangan "Fizika - 2022" ikkinchi Xalqaro Forumi o'z ishini boshladi.



Ushbu forumda respublikamiz hamda xorijiy davlatlarning akademiklar, professorlar, fizika fani bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borayotgan 200 dan ortiq ilm-fan namoyondalari ishtirok etishmoqda.



Forum doirasidagi asosiy tadbirlarda “Farg’ona vodiysida fizika ilm fanining bugungi kuni va yangi yo’nalishlarini rivojlantirish istiqbollari” faol muhokama qilinib, olib borilayotgan ilmiy tadqiqod ishlarining samaralari, taklif etilayotgan loyihalarning mazmun-moxiyatiga ilm-fan vakillarining e’tiborini qaratish orqali mavjud muammolarga ilmiy tomondan yechim topish maqsad qilingan.